



Respublikada yetishtirilgan, qayta ishlangan va eksport-import qilingan don va don mahsulotlarini sertifikatlashtirish

Sertifikatlashtirish bosqichlari

Sertifikatlashtirish yuzasidan ariza qabul qilish va uni ko'rib chiqish

Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish va sinov dasturini tayyorlash

Namunalarni identifikatsiya qilish va namuna tanlab olish

Olingan natijalarni tahlil qilish, muvofiqlik sertifikatini berish yo'ki uni berishni rad etish

Muvofiqlik sertifikatini Davlat reestrda ro'yxatga olish



Sifat sertifikatini berish

Buyurtma qabul qilish va namuna tanlab olish

Don va don mahsulotlarini saqlanish holatini o'rganish

Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha sinovlarni o'tkazish

Mahsulotni qadoqlanish sifatini o'rganish

Sinov natijalarini tahlil qilish va sifat sertifikatini rasmiylashtirish



Respublikada yetishtirilgan, qayta ishlangan va eksport-import qilingan don va don mahsulotlarini sertifikatlashtirish

Tovar donni sertifikatlashtirish “Don xavfsizligi to’g’risida”gi umumiy texnik reglament talablari bo’yicha 8 ta sifat ko’rsatkichlari aniqlanadi:

- don zararkunandalari bilan zararlanishi;
- zamburug’lar bilan kasallanishi, Sporinya i golovnya (po sovokupnosti);
- begona o’t urug’lari mavjudligi (gorchak polzuchiy, sofora, lisoqvostnaya, termopsis lantsetniy);
- zaxarli o’t urug’lari mavjudligi (vyazel raznotsvetniy), Geliotrop opushennoplodniy;
- kampirchopon urug’i mavjudligi (trixodesma sedaya);
- qorakuya mavjudligi (golovneviye (maraniye, sineguzochniye) zerna);
- fuzarioz don mavjudligi;
- barcha sinov natijalari standart talablariga muvofiq deb topilsa muvofiqlik sertifikati rasmiylashtiriladi.

Don mahsulotlarini (un, yorma) sertifikatlashtirish “Donni qayta ishlash mahsulotlarining xavfsizligi to’g’risidagi maxsus texnik reglamenti” asosida muvofiqlikni baholash ishlari amalga oshiriladi.

Un va yormalarni sertifikatlashtirishda quyidagi sifat ko’rsatkichlari aniqlanadi:

Un oqligi, namligi, mineral aralashmalar miqdori, metalomagnit aralashmalar miqdori, nordonligi, zararkunandalar bilan zararlanishi.

Barcha sinov natijalari standart talablariga muvofiq deb topilsa muvofiqlik sertifikati rasmiylashtiriladi.